

O'QUVCHILARNI ESTETIK TARBIYALASHDA BUXORO FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGATISHNING AHAMIYATI

Kazimov Shoxruz Raimovich

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi

I bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: Rajabov T.I., p.f.f.d (PhD) dotsent, BuxDU.

Annotasiya : *Ushbu maqolada buxoro folklor qoshiqlari yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashdagi orni haqida bayon etilgan. Buxoro folklor qo'shiqlari inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususi yatiga ega bo'lib, axloqiy tarbiyaning muhim manbaidir. Hayotning betakror qirralari va ijod ahlining lirik kechinmalarini ozida aks ettirgan folklor qoshiqlari oquvchilarning ongida ham nozik kechinmalarni uygotib, ularni gozallik olamiga olib kirishi, gozallikka mehr-muhabbat uygotib, oqishda va mehnatda faollikka ruhlantirishi shubhasizdir.*

Tayanch so'zlar: *folklor, metod, estetika, kuy, mahalliy uslub, xalq qo'shiqlari, madaniyat, sub-madaniyat, musiqa, qo'shiq, ohang, hissiyot, ma'naviyat, axloqiy madaniyat, san'at, adabiyot, pedagogika, xonanda*

THE SIGNIFICANCE OF TEACHING BUKHARA FOLKLORE SONGS IN AESTHETIC EDUCATION OF STUDENTS

Kazimov Shokhruz Raimovich

Turkestan New Innovation University, Master's student of Music Education
and Art, 1st stage

Annotation: The article deals with methodological aspects in the selection of Bukhara folk songs. Acquaintance with national culture. The structure of personality, the place of children's folklore among schoolchildren, purposeful pedagogical processes of formation and integration of moral qualities are discussed.

Key words: method, folk songs, culture, music, song, feeling, ability, structure, teacher, national culture.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga tarixiy Murojaatnomasida pedagogika sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash bo'yicha ustuvor vazifalar

belgilab berilganidan kelib chiqadi. Ta'lim, kasb-hunar va pedagogik kadrlar tayyorlash, o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy uslublari, maktabda kasbga yo'naltirish ishlari, o'quvchilarning qobiliyatini aniqlash, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarini takomillashtirish, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish-o'zaro bog'liqlikdir. Fan, ta'lim va ishlab chiqarish, maktablar bilan aloqa, kadrlar tayyorlashning istiqbolli rejalari va boshqa birdek muhim vazifalardan biridir.

Yosh avlodning musiqiy iste'dodi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida mamlakatimizning har bir shahar va tumanida musiqa va san'at maktablarining faoliyat ko'rsatishi nazarda tutilgan. Bunday imkoniyatlarning yaratilishi, birinchidan, bolalarda kuy-qo'shiqqa, san'atga muhabbat uyg'otib, ularda cholg'uchilik, ijrochilik kabi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Ikkinchidan, musiqa san'ati asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy, axloqiy madaniyatini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshiradi. Ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi. Uchinchidan, musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mustaqillikning birinchi yillaridanoq mamlakatimizda musiqa san'atini keng rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi. Ayniqsa, mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buning natijasida nufuzli xalqaro musiqa anjumanlari, «Sharq taronalari» muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Shuni alohida e'tirof etish lozimki, yoshlar ta'lim-tarbiyasi sifati va samaradorligi ustida qanchalik harakat qilmaylik, hali hanuz ijtimoiy hayotimizda g'arb musiqasiga xos bo'lgan «Rep», «Gok» kabi jazavaga tushish ruhiyatini qo'zg'atadigan kuy va qo'shiqlar kirib kelmoqda. Bunday qo'shiqlar yana «ommaviy madaniyat» g'oyasi ostida qabul qilinmoqda. Bugungi kunda ana shunday yengil-yelpi, ma'nosiz va to'mtoq qo'shiqlar bilan bizning milliy mentalitetimizga xos bo'lmagan odatlarni yoshlarimiz tabiatiga singdirish uchun harakatlar qilinmoqda. Biz buni noodatiy va «ommaviy madaniyat» unsurlaridan ularni asrab qolishimiz zarur.

O'zbek xalqi tarixida shakllangan va rivojlangan Buxoro musiqa folklori istiqlol yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Milliy musiqa san'ati yutuqlarini o'rganish bo'yicha katta imkoniyatlar ochildi. Bu soha rivojiga ko'rsatilayotgan doimiy e'tibor natijasida yosh iste'dodlarning o'zini namoyon etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Yosh avlodning musiqiy iste'dodi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida mamlakatimizning har bir shahar va tumanlarida umumta'lim maktablaridagi musiqa to'garaklari, bundan tashqari musiqa va san'at maktablarining faoliyat ko'rsatishi nazarda tutilgan. Ayniqsa, mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buning natijasida nufuzli xalqaro musiqa anjumanlari, «Sharq taronalari», «Shashmaqom festivali», «Ipak va ziravorlar» muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda.

Shuni aloxida e'tirof etish lozimki, yoshlar ta'lim-tarbiyasi sifati va samaradorligi ustida qanchalik harakat qilmaylik, hali hanuz ijtimoiy hayotimizda g'arb musiqasiga xos bo'lgan «Rep», «Gok» kabi jazavaga tushish ruhiyatini qo'zg'atadigan kuy va qo'shiqlar kirib kelmoqda. Bunday qo'shiqlar yana «ommaviy madaniyat» g'oyasi ostida qabul qilinmoqda. Bugungi kunda ana shunday yengil-yelpi, ma'nosiz va to'mtoq qo'shiqlar bilan bizning milliy mentalitetimizga xos bo'lmagan odatlarni yoshlarimiz tabiatiga singdirish uchun harakatlar qilinmoqda. Biz buni noodatiy va «ommaviy madaniyat» unsurlaridan ularni asrab qolishimiz zarur. O'zbek xalqi tarixida shakllangan va rivojlangan Buxoro musiqa folklori istiqlol yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Milliy musiqa san'ati yutuqlarini o'rganish bo'yicha katta imkoniyatlar ochildi. Bu soha rivojiga ko'rsatilayotgan doimiy e'tibor natijasida yosh iste'dodlarning o'zini namoyon etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

O'zbek musiqa folklori asosida o'quvchilarni estetik tarbiyalash dolzarb muammolardan biriga aylandi. Chunki, o'zbek musiqa folklori, jumladan, Buxoro musiqa folklori millatning ma'naviy-musiqiy boyligi hisoblanishi bilan birga uning mazmunida milliy urf-odat va an'analar, milliy mentalitet o'z ifodasini topgan. Buxoro musiqa folklori o'zining o'ynoqiligi va jo'shqinligiga ko'ra o'quvchilarni

estetik tarbiyalashda muhim didaktik vosita sanalanadi. Shuning uchun ham umumiy oʻrta taʼlim maktablarida “Musika madaniyati” oʻquv fani jarayonida Buxoro musika folklorini oʻrganish oʻquvchilarning sanʼat asarlarini his etish, ulardan maʼnaviy zavq olish, goʻzallikka intilish kabi xislatlarining shakllanishida alohida ahamiyatga ega.

Shu jihatdan ham bugungi kunda Buxoro musika folklori asosida oʻquvchilarni estetik tarbiyalash usullari, vositalarini, estetik tarbiyaning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini ochish zaruriyati alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki musika taʼlimining ushbu yoʻnalishi oʻquvchilarda musika folkloriga oid nazariy va amaliy bilimlarni, badiiy-musiqiy, estetik tafakkurni shakllantirishda, maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda dolzarb muammolardan hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatini tarkib toptirish, eng avvalo, mazkur jamiyatda yashayotgan kishilarning maʼnaviy – axloqiy jihatdan yetukligi va yuksak darajadagi aqliy salohiyatiga bogʻliq. Yosh avlodga taʼlim–tarbiya berish umumiy oʻrta taʼlim maktablarida oʻqitiladigan har bir oʻquv predmeti hamda sinfdan tashqari olib boriladigan tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Maktab oʻquv predmetlari oʻquvchilarni estetik ruhda tarbiyalash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik taʼlim-tarbiya tufayli oʻquvchilarda bir qator ijobiy sifatlar shakllanadi. Jumladan, ularda kuchli hissiy mushohada, mustaqil tafakkur yuritish qobiliyati, mantiqiy fikrlash xususiyatlari tarkib topadi. Shunday ekan, umumiy oʻrta taʼlim bosqichida oʻquvchilarda estetik madaniyatni shakllantirishga alohida eʼtibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Амонов М. ФОРМИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ У ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.

2. Амонов М. Н., Хусенова С. С. РАЗВИТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА У ДЕТЕЙ //СОВРЕМЕННОЕ ДЕТСТВО: ЗДОРОВЬЕ, РАЗВИТИЕ, БЕЗОПАСНОСТЬ. – 2021. – С. 137-140.

3. Amonov M. ФОРМИРОВАНИЕ ГРАЖДАНСКОЙ ПОЗИЦИИ У ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.

4. Amonov M. О ‘QUVCHILARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING OMILLARI VA MEZONLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.

5. Жураев Б. Т., Абдурахмонова Д. У. Эстетическое развитие школьников средствами узбекского музыкального фольклора //Вестник Чувашского государственного института культуры и искусств. – 2019. – №. 14. – С. 77.

6. Жураев Б. Т. Деятельность педагога по гуманизации учебно-воспитательного процесса //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.: материалы междунар. науч.-творч. форума. – 2017. – Т. 31.

7. Амануллаева Д. «Эстрада хонандалиги». Магистрлар учун дарслик (кўлёзма). – Т., 2014.

8. Нуруллаев Ф. Г. Композиционный и исполнительский процесс в музыке //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 576-581.

9. Нуруллаев Ф. Г. Содержание обучения бухарским народным песням в музыкальном образовании //Academy. – 2021. – №. 3 (66). – С. 48-50.

10. Olimov S. S., Khomidov K. K. Preparing Future Teachers To Solve The Tasks Of Patriotic Education Of Children And Youth //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – Т. 2. – №. 12. – С. 132-136.

11. Болтаева З. З., Хомидов Х. К. ЛИЧНОСТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В НЕПРЕРЫВНОМ ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ //VIII Лазаревские чтения" Лики традиционной культуры в современном культурном пространстве: ренессанс базовых ценностей?". – 2018. – С. 110-112.

12. Ortiqov O. R. O'QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 42-47.